

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI

*Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li, Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish kafedrasi assistenti*

*Ahmedov Sherzod Ahmadjon o'g'li*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nazariy masalalar bilan birga respublika iqtisodiyotini kelgusi taraqqiyotini belgilashda yangi amaliy natijalarni beradi. Shuningdek, maqolada raqamli iqtisodiyotni Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga mos muhim xususiyatlari ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, institusional xususiyatlar, onlayn xizmatlar, buyumlar interneti, blokcheyn, yashirin iqtisodiyot.

O'zbekistonning kelgusi iqtisodiy taraqqiyoti raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bevosita bog'langan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimiz Parlamentiga Murojatnomasida ta'kidlanganidek: "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tub burilishi qilinishi mo'ljalangan. Qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog'lijni saqlash, ta'lim, arxiv sohalarini to'liq raqamlashtirish lozim"<sup>1</sup> degan fikrlari iqtisodiyotmizni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli tizimni shakllantirish bo'yicha asosiy vazifa qilib belgilangan.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotini raqamlashtirish asosida rivojlanishi bu yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishini taqozo etmoqda. Bu borada dunyoning bir qator yirik iqtisodchi olimlari tamonidan raqamli iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilgan.

Jahonning yetakchi olimlaridan Don Tapskott, Nikolas Negroponte, Devid Shaum, Skott Vanstoun, Nik Sabo, Adam Bek, Shon Fenning, Tom

Pepper va Jastin Frankel kabilar raqamli iqtisodiyotnining mohiyati, shakllanishi va jamiyat taraqqiyotida o'rni bo'yicha o'zlarini hissasini qo'shishgan. Xususan, «Raqamli iqtisodiyot» atamasasi ikki olimning nomlari bilan, bulardan birinchisi, kanadalik iqtisodchi Don Tapskott va ikkinchisi amerikalik axborot texnologiya mutaxassisni Nikolas Negroponte hisoblanadi. Ilk bor 1995-yilda "Being Digital" kitobida Nikolas Negropont "raqamli iqtisodiyot" atamasini qo'llagan.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda chuqur tadqiqot olib borgan MDH davlatlaridan Rossiyalik olim V.M.Bandarenkoning so'zlariga ko'ra "raqamli iqtisodiyot" bu yaxlit tizimli to'rtinchi sanoat inqilobining texnologiyalari bilan mos keladigan, insonlar o'rtasidagi murakkaab munosabatlar

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Парламентга Мурожатномаси. 24 январь 2020 йил.  
Зарафшон 1-сон, 2020 йил 27 январь

## 2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

muammosining yechim modelini topish demakdir<sup>2</sup> deb hisoblaydi. Shuningdek, boshqa bir Rossiyalik olimlar I.S. Adnamax va Ye.V. Storojevalarning ta'riflashicha, raqamli iqtisodiyot – bu raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lган faoliyat bo'lib, unga onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar, internet tijorat, krauffanding va boshqalar kiradi<sup>3</sup>. T.A. Gasanov va G.A. Gasanovlar keltirgan ta'rifga ko'ra, raqamli iqtisodiyot bu-yetakchi ilmiy yutuqlar va ilg'or texnologiyalarga, birinchi navbatda axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyotdagi institusional kategoriyalar tizimi bo'lib, uning amal qilishi yalpi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash maqsadida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab turishga qaratiladi deb hisoblanadi. Shunday ekan raqamli iqtisodiyot institusional iqtisodiyotning transformasiyalashuvi bo'lib, ushbu jarayonda milliy boylik hajmini kengaytirish, aholi turmush darajasini oshirish va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash maqsadlarida milliy iqtisodiyotni innovasion rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan har tomonlama va tizimli foydalilanadi.<sup>4</sup>

Bu borada O'zbekistonlik olimlardan akademik S.S.G'ulomov, raqamli iqtisodiyot haqida o'z qarashlarini ham bayon etgan. Xususan, "raqamli (elektron) iqtisodiyot bu – axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalinish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish o'ziga xos xususiyati bo'lган iqtisodiyot turidir"<sup>5</sup>. Boshqa iqtisodchilar "Raqamli iqtisodiyot asoslari" darsligida "Raqamli iqtisodiyot-raqamli axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan

---

foydalishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi"<sup>6</sup> deb ta'rif berishgan. Shuningdek, Respublikaning bir guruh yetakchi iqtisodchi olimlari raqamli iqtisodiyotni "raqamli texnologiyalar kommunikasiyalarga ketadigan vaqtini qiskartirish va barcha iqtisodiy jarayonlarni tezlatishga imkon beradi",<sup>7</sup> degan fikrni ilgari surgan.

Demak, raqamli iqtisodiyot bu shunday iqtisodiy faoliyat bo'lib bunda barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonini ifodalovchi axborotlarni raqamlashtirilgan tizim asosida bayon etishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning muhim xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

---

<sup>2</sup> Бондаренко, В. М. Мировоззренческий подход к формированию, развитию и реализации «цифровой экономики» / Бондаренко В. М. // Современные информационные технологии и ИТ-образование. – 2017, Т. 13. – № 1. – С. 237–251.

<sup>3</sup> Аднамах И.С., Сторожева Е.В. Использование информационных технологий в обеспечении финансовой безопасности банков // Молодая наука – 2015: матер. VI Открытой Междунар. Молодежной науч.-практ. конф. 2016. С. 119–121.

<sup>4</sup> Гасанов Т.А., Гасанов Г.А. Цифровая экономика как новое направление экономической теории // Региональные проблемы преобразования экономики. 2017. № 6. С. 4–10.

<sup>5</sup> С.С. Ғуломов, Р.Ҳ. Аюпов "Ракамли иктисодиёт ва elektron tijorat asoslari. Т.: ТМИ, "Иктисад-Молия" нашриёти, 2020, 510 бет.

<sup>6</sup> Porsaev G'.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. Samarqand: SamDU nashri, 2020. -270 bet

<sup>7</sup> Абдуллаев О.М., Фаттахов А.А., К.Ахмедов. Ракамли иктисодиёт. Т.: "LESSON PRESS, нашрбти 2020 йил - 686 бет <sup>8</sup> Ўзбекистон Республиси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. "2022-2026 йилларга мўлжаланган Янги Ўзбекистон Таракқиёт стратегияси" www.lex.uz

2023: International Conference on Research Identity,  
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

Birinchidan, bunday iqtisodiyot biznes uchun tezkor yangi g'oyalar izlab topish hamda mijozlar uchun tezkor natijaga qaytadigan aloqalarni amalga oshirish imkonini beradigan iqtisodiy munosabatlardan iborat;

Ikkinchidan, innovasiyalarni raqamli shaklga keltirib iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlariga tezkor joriy etish va zarur hollarda tez-tez almashtirish, yangilab berish imkonini beradi;

Uchinchidan, bunday iqtisodiyot asosida yangicha jadal taraqqiyot uchun yangi istiqbollarni ochib beradigan o'ta murakkab, kutilmagan natijalar beradigan bozor muhitini namayon qiladi;

To'rtinchidan, mazkur iqtisodiyot suniy intellektdan foydalanish imkonini beradigan yangi g'oyalarni yaratish imkoniyatini ochib beradi;

Beshinchidan, yangi zamonaviy texnologiyalar ya'ni, "blokcheyn", "byumlar interneti", "5G aloqa tizimi" va boshqalardan foydalanish imkoniyatini beradigan iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi;

Oltinchidan, ushbu iqtisodiyot internetdan foydalanishning mutloqo yangi davrini ochib beradi shuningdek, iste'molchilardan internet asosida biznes yaratish daromat olishni ko'paytirish va boshqa kapitallashuvning tezkor o'sish tendensiyasini shakllantiradi.

Ta'kidlash joiski raqamli iqtisodiyotni kelgusi taraqqiyoti O'zbekiston Respublasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi"da ta'kidlaganidek "Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirilib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish"<sup>8</sup> vazifa qilib belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

---

Birinchidan, iqtisodiyotni barcha tarmoq va sohalariga yangi, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan maksimal darajada samarali foydalanish uchun shart-sharoit yaratiladi;

Ikkinchidan, iqtisodiyotni barcha tarmoq va sohalarida "raqamli iqtisodiy tizimlar" jumladan "elektron platformalar", "elektron ilovalar", "elektron qurilmalar" va shu kabilardan internet bozorida iste'molchilarning foydalanish imkoniyati kengayadi;

Uchinchidan, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida raqamli iqtisodiyotni o'z ichiga olgan tarkibiy o'zgarishlar vujudga keladi;

To'rtinchidan, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni joriy etish natijasida yalpi ichki mahsulotni jadal o'sish imkoniyati yaratiladi hamda 2030 yilga kelib respublikamizda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish"<sup>8</sup> bo'yicha barcha shart-sharoitlar yaratiladi;

Beshinchidan, respublika iqtisodiyotini raqamlashtirish talabiga mos mutloqo yangicha bilimga, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash zarurati asosida jahon andozosiga mos kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Bunday kadrlarni respublikamizda tayyorlash kredit-modul tizimi asosida amalga oshirish joriy etiladi;

Oltinchidan, raqamli iqtisodiyot mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish hamda turli ko'rinishdagi "yashirin iqtisodiyot"ni pasaytirish imkonini beradigan muhim vositasi sifatida foydalanish yo'lga qo'yiladi.

---

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. "2022-2026 йилларга мўлжаланган Янги Ўзбекистон Тараккиёт стратегияси" [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sod Farmoni. "2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Parlamentga Murojatnomasi. 24 yanvar 2020 yil. Zarafshon 1-son, 2020 yil 27 yanvar
3. Adnamax I.S., Storojeva Ye.V. Ispolzovaniye informacionnyx texnologiy v obespechenii finansovoy bezopasnosti bankov // Molodaya nauka – 2015: mater. VI Otkrytoj Mejdunar. Molodejnoj nauch.-prakt. konf. 2016. S. 119–121.
4. Abdullayev O.M., Fattaxov A.A., K.Axmedov. Rakamli iktisodiyot. T.: "LESSON PRESS, nashrbi 2020 yil - 686 bet
5. Bondarenko, V. M. Mirovozzrencheskiy podxod k formirovaniyu, razvitiyu i realizasii «sifrovoy ekonomiki» / Bondarenko V. M. // Sovremennyye informacionnye texnologii i IT-obrazovaniye. – 2017, T. 13. – № 1. – S. 237–251.
6. Gasanov T.A., Gasanov G.A. Sifrovaya ekonomika kak novoye napravleniye ekonomiceskoy teorii // Regionalnye problemy preobrazovaniya ekonomiki. 2017. № 6. S. 4–10.
7. <sup>1</sup> S.S. G'ulomov, R.H. Ayupov "Rakamli iktisodiyot va elektron tijorat asoslari. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2020, 510 bet.
8. Porsaev G'.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. Samarqand: SamDU nashri, 2020. -270 bet.